



5-SINFDA “YANGI PAYDO BO‘LGAN SO‘ZLAR” MAVZUSINI O‘QITISHDA ZAMONAVIY METODLARDAN FOYDALANISH

Xanmuratova Sayyora Xalmuxammet qizi

Ajiniyoz nomidagi Nukus DPI

*O‘zbek tili va adabiyoti ta’lim yo‘nalishi
talabasi*

Tilshunoslikda jamiyat taraqqiyoti, hayotning talab-ehtiyoji bilan paydo bo‘lgan yangi narsa va tushunchalarni ifodalovchi so‘zlar neologizmlar deb yuritiladi. Neologizmlarning yangiligi dastlab paydo bo‘lgan vaqtlardagina sezilib turadi: vaqt o‘tgach, ular “yangilik” xususiyatini yo‘qotib, odatda, faol so‘zlar qatoriga o‘tadi. Masalan, o‘zbek tili uchun bir qancha yil davomida yangi hisoblangan marketing, reyting, tender so‘zlari hozirgi kunda umumiste’ moldagi so‘zlarga aylanmoqda.

Neologizmlar ilmiy asarlarda shu uslubga xos termin sifatida atash (nominativ) vazifasini bajaradi. Badiiy asarlarda, odatda, uslubiy vazifani bajaradi. Neologizmlarning paydo bo‘lish yo‘llari xilma-xil bo‘lib, ular tilning mavjud lug‘aviy tarkibi va grammatik qonun-qoidalari asosida yangi so‘z yasash yo‘li, shuningdek, mavjud so‘zning lug‘aviy ma’nolaridan birini yangi ma’noda qo‘llash yo‘li bilan va boshqa tildan so‘z qabul qilish orqali hosil qilinadi

Hozirda barcha sohalarda mavjud bo‘lgan va muomalaga hech qanday to‘siqlarsiz kirib kelayotgan neologizmlarni hech qanday muammosiz talaffuz qilmoqdamiz, ma’lumot tashiyotgan ma’no doirasi barchaga bir xil ma’noda tushunarlidir.

O‘zbek tilshunosligida neologizmlarni o‘rganish va ularni muqobiliga almashtirish va bu muqobilning muomalada ijobiy qabul qilinishiga erishish masalalari ko‘ndalang turibdi. Texnika asrida tilimizning sofligini saqlash maqsadida keyinchalik kirib keladigan neologizmlarni muomalaga kirmasdan ilgari o‘zbekcha muqobilini yaratish va bu ishni amalga oshirishda tilimizni rivojlantiradigan barcha tashkilotlarga birdek ma’suliyat yuklashdir. Avvalambor, xalqimiz o‘zligini saqlashi bu tilimizga bevosita chambarchas bog‘liqdir. Mazkur mavzu ana shunday dolzarb masalalarga bag‘ishlanganligi bilan ahamiyatlidir.

Ma’lumki, o‘rta maktab ona tili ta’limining konseptual asoslarida uning zaruriy vositasi ikkita ekanligi ta’kidlanadi. Bular: darslik va lug‘atlar. O‘quvchilarning ijodiy tafakkurini va nutqini o‘stirishning zaruriy omillaridan biri hozirgi kunda tilimizda mavjud bo‘lgan yangi so‘zlarning ma’nolari ustida ishlashdir. Shuni inobatga olgan holda men ham ushbu bitiruv malakaviy ishimga hozirda nutqimizda ko‘p qo‘llanuvchi yangi so‘zlar va ularning ma’nolariga to‘xtalib o‘tishni lozim deb topdim. Masalan, hozirda nutqimizda ko‘p qo‘llanuvchi “amaliyot” so‘zini olsak. Bu so‘zning oddiy va



hamma uchun birdek tushunarli ma'nolari – kundalik tajriba; ilmiy-nazariy xulosa, qoida, amalda qo'llash; tajriba kabilardir. “*Arxitektura*” so‘zining esa – bino va inshootlarni loyihalsh, qurish va bezatish san’ati; me’morchilik kabi ma'nolari mavjud. “*Biznes*” – katta daromad orttirishga, foyda olishga qaratilgan ish. “*Biznesmen*” – tadbirkor. “*Dekoratsiya*” – sahna bezaklari. “*Desert*” – shirinlik. “*Forum*” – yig'in. “*Litsenziya*” – ruxsatnoma. Adabiy tilga oid ba'zi so'zlar o'quvchilar nutqida kam qo'llanadi. Bu so'zning ma'nosini o'quvchilar yetarli darajada tushunmaydilar. Uning o'rnida oddiy so'zlashuvga doir eskirgan yoki shevaga oid so'zlarni qo'llaydi. O'qituvchi ularni kitobiy so'zlar bilan almashtirish uchun nutqda qo'llashga majbur qiladigan vaziyat yaratishi, ehtiyojni yuzaga keltira olishi zarur. Masalan: jim – tinch, osuda, osoyishta; yurakdan – dildan; garmdori – qalampir; rayon – tuman.

Hozirgi kunda yangilik belgisini saqlab turgan so'zlarga “yangi so'zlar” deyiladi. Bunday so'zlar fan, texnika va san'atning rivojlanishi bilan tilda yangi paydo bo'lgan tushunchalar nomini ifodalovchi so'zlar hisobiga hosil bo'ladi. Yangi so'zlarda yangilik bo'yog'i sezilib turadi. Masalan: *keshbek, klik, payme, skidka, reyting, aktsiya, monitoring, investitsiya* va hokazo.

Shuni ham alohida ta'kidlash joizki, yangi so'zlarning o'zlashma so'zlardan farqi shundaki, o'zlashma so'zlar tilimizga singib ketgan va lug'atlarimizdan joy olgan so'zlar bo'lsa, yangi so'zlar esa tilimizga yangi kirib kelgan va hali keng yoyilmagan so'zlar hisoblanadi. Yangi so'zlar vaqt o'tishi va iste'moldagi so'zlarimiz qatoriga qo'shilishi bilan o'zlashma so'zlarga aylanadi. Yangi so'zlarning paydo bo'lishi tilning rivojlanishida, o'zgarishida o'zining muhim o'rniga ega.

Chat so'zi inglizcha *chatter* – “valdiramoq”, “vaysamoq”, “aljiramoq” so'zlaridan olingan. Internet tarmog'i orqali muayyan vaqtda aloqa qilish va shunday aloqani yo'lga qo'yishga mo'ljallangan dastur ta'minotiga chat deyiladi. Unga o'xshash *fleshka, sayt, virus, antivirus, xaker, shou* so'zlari ham bor. Bu so'zlardan o'z nutqingizda ko'p foydalanasiz. Ularning izohini bilib qo'ying, chunki zamonaviy texnologiyalarni bilish davr talabidir.

Hech kimga sir emaski, keyingi yillarda fan va texnikaning shiddat bilan rivojlanishi iqtisodiyot sohasiga ham o'z ta'sirini o'tkazmay qolmadi. Shu sababli ham hozirda biz dunyoning barcha mintaqalarida bo'layotgan ma'lumotlarni tezda bilib olishga ega bo'lyapmiz. Lekin ushbu ma'lumotlar orqali tilimizga kirib kelayotgan yangi so'zlar tilning shakliy ravishda o'rganilishiga turtki bo'lmoqda. Demak, hozirda tilshunoslikdagi eng katta hamda dolzarb muammolardan biri bu – yangi paydo bo'lgan so'zlardir. Bizning fikrimizcha, til sofligiga hamda o'zbekcha so'zlarni tilimizda faol qo'llanishiga erishish bosqichma-bosqich amalga oshadigan jarayon hisoblanadi. Shuni ham alohida ta'kidlab o'tishimiz lozimki, kundan-kunga fan-texnika, biznes,



iqtisodiyot, axborot texnologiyalari va boshqa barcha sohalar jadallik bilan rivojlanib borayotganligi hisobiga neologizmlar tobora barcha sohalarda ham ortib boraveradi. Shunday ekan, yangi soʻzlar ustida ish olib borar ekanmiz hecha qachon toʻxtab qolmasligimiz lozim. Chunki ular kun sayin yangilanaveradi, yangilarini esa oʻrganish hamda tahlil qilish zarur.

Oʻzbek tili leksikasi tashqi manbalar asosida ham boyib bormoqda. Dunyoda boshqa tillardan soʻz olmasdan faqat oʻz ichki imkoniyatlari asosidagina rivojlanadigan birorta ham til yoʻq. Bundan oʻzbek tili ham mustasno emas. Faqat maʼlum zarurat tufayli yangi tushunchani ifodalovchi oʻz tilimizning ichki imkoniyatlari asosida ifodalab boʻlmagandagina tashqi manbalarga murojaat qilish foydalidir. Neologizmlar nutqda toʻgʻri qoʻllanilishi kerak. Ularni yaratishda adabiy til meʼyorlariga amal qilish zarur. Nutqning evfoniyasi, estetikasi buzilgan neologizmlar talablarga javob bermaydi. Odatda ular allaqachon maʼlum soʻzlarni takrorlaydilar, ular kerak emas. Soʻz birikmasini ifodalovchi neologizmlar faqat kinoya yoki satira bilan kontekstda, masalan, feleton yozishda ishlatilishi mumkin.

Xulosa oʻrnida shuni aytish joizki, bugungi kundagi neologizmlarning tilimiz leksikonida vaqtlar oʻtib muqobil sifatida qolib ketishining oldini olish va tilimizni sofligicha saqlash uchun chet el leksikonidagi soʻzlarning ishlatilishini cheklash lozim.

ADABIYOTLAR:

1. Mengliyev B. Hozirgi oʻzbek adabiy tili – Toshkent, “Tafakkur boʻstoni”, 2018.
2. Mahmudov N., Sobirov A., Sattorov Sh., Toshmirzayeva Sh., Mannopova D. Umumiy oʻrta taʼlim maktablarining 5-sinfi uchun ona tili darslik – Toshkent, “Gʻafur Gʻulom”, 2020.
3. Roʻzieva D., Usmonboeva M., Holiqova Z. Interfaol metodlar: mohiyati va qoʻllanilishi – Toshkent, 2013.
4. Saidov M. Oʻrta maktablarning 5-sinflarida ona tili taʼlimi jarayonida tafakkurni rivojlantiruvchi oʻquv topshiriqlari va ulardan foydalanish metodikasi – Toshkent, 2000.
5. Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G., Qurbonova M., Yunusova Z., Abuzalova M. Hozirgi oʻzbek adabiy tili – Toshkent, 2009.
6. Tursunov A., Muxtorov A., Rahmatullayev Sh. Hozirgi oʻzbek adabiy tili – Toshkent, “Oʻzbekiston”, 1992.
7. Gʻulomov A., Qodirov M., Ernazarova M., Bobomurodova A., Alavutdinova N., Karimjonova V. Ona tili oʻqitish metodikasi – Toshkent, 2012.